

ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING OG'ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Xayrullayeva Sevinch Urol qizi

DTPI, Pedagogika fakulteti,

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

Tel:93 119 12 02

e-mail: xayrullayevasevinch855@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada ona tili darslarida o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishning samarali yo'llari va usullari yoritilgan Og'zaki nutq o'quvchilarning muloqot madaniyatining shakllantirish, fikrni aniq va ravon ifoda etish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda interfaol metodlar suhbat, munozara, rolikli mashg'ulotlar, rolli o'yinlar hamda nutqiy vaziyatlardan foydalanish orqali o'quvchilar nutq faolligini oshirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, dars jarayonida o'qituvchining nutqnamunasi, til boyligini kengaytirish mashqlari va mustaqil fikrlashga yo'naltirilgan topshiriqlarning o'rni ko'rsatib o'tilgan. Maqola natijalari ona tili ta'limida kommunikativ yondashuvni kuchaytirish va o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Ta'lim, og'zaki nutq, multimedia, kommunikativlik.

ПУТИ РАЗВИТИЯ УСТНОЙ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ РОДНОГО (УЗБЕКСКОГО) ЯЗЫКА.

Аннотация: В данной статье освещены эффективные пути и методы развития устной речи учащихся на уроках родного языка устная речь приобретает важное значение в формировании культуры общения учащихся, в развитии навыков четкого и красноречивого выражения мысли. В исследовании анализируются возможности повышения речевой активности учащихся посредством использования интерактивных

методов беседы, обсуждения, ролевых занятий, ролевых игр, речевых ситуаций. Также указывается роль речевого образца учителя в процессе урока, упражнения на расширение языкового богатства и задания, направленные на самостоятельное мышление. Результаты статьи служат укреплению коммуникативного подхода в обучении родному языку и развитию речевой культуры учащихся.

Ключевые слова: образование, устная речь, мультимедиа, коммуникативность.

WAYS TO DEVELOP STUDENTS' ORAL SPEECH IN NATIVE (UZBEK) LANGUAGE LESSONS.

Annotation: in this article, The Effective Ways and methods of developing the oral speech of students in the lessons of the native language are highlighted, oral speech is important in the development of the students ' skills for the formation of a communication culture, clear and fluent expression of thought. The study analyzes the possibilities of increasing the speech activity of students through interactive methods conversation, discussion, roller training, role-playing games and the use of speech situations. Also, in the course of the lesson, the role of the teacher's Speech System, Exercises for expanding the wealth of language and assignments aimed at independent thinking is indicated. The results of the article serve to strengthen the communicative approach in the education of the native language and to develop the speech culture of the speakers.

Keywords: Education, oral speech, multimedia, communicativity.

Kirish: Ogʻzaki nutq — bu taʼlim jarayonida oʻquvchining fikrini soʻz orqali aniq, ravon va muloqotga yoʻnaltirilgan tarzda ifodalay olishi, til orqali ijtimoiy munosabat oʻrnatishi, boshqalar bilan fikr almashishi demakdir. Mazkur koʻnikma nafaqat tilshunoslik, balki pedagogika va psixologiya nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyatga ega. Pedagogik tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, “nutq faoliyati boshlangan va shakllanayotgan oʻquvchilarda nutqning tarkibi va shakllanishi ularning tafakkur, fikrlash va muloqot qobiliyatlari bilan uzviy

bog'liq".Shu boisdan, dars jarayonida og'zaki nutqni rivojlantirish — ona tili fanini o'qitishning ajralmas qismi bo'lishi lozim.“Ona tilimizning milliy ma'naviyatimizning bitmas, tuganmas bulog'idir. Shunday ekan, unga munosib hurmat va ehtirom ko'rsatish barchamizning nafaqat vazifamiz, balki muqaddas insoniy burchimizdir deya” ta'kidlab o'tganlar muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev.

Asosiy qism: Bugungi kunda ta'lim standartlari va metodik tadqiqotlar quyidagicha fikr bildiradi: “Og'zaki nutqni rivojlantirish — til o'rganish jarayonining muhim bosqichi bo'lib, o'quvchilarning muloqot ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, og'zaki nutqning ijtimoiy-shaxsiy ma'nosi ham katta.“Nutq faoliyati vao'quv jarayonining shaxs rivojlanishiga ta'siri” maqolasida nutqning kommunikativ, ramziy, ekspressiv, rejalashtirish va ijtimoiy tajribani o'tkazish funksiyalari aniq ifodalangan.Ya'ni, ona tili darslarida og'zaki nutqni rivojlantirish — nafaqat til malakasini oshirish, balki o'quvchining muloqot madaniyati, fikrlash darajasi, shaxsiy ifoda imkoniyatlarini kengaytirishdir.Ta'limda — xususan, umumta'lim maktabida — og'zaki nutqni rivojlantirish bosqichlari va usullari keng ko'lamda tadqiq etilmoqda. Masalan:“Maktabda o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish usullari...” nomli maqolada so'z boyligi, muloqot madaniyati, interfaol usullar, bahs-munozara va fikrlash faoliyati nutq ko'nikmalarini shakllantirishda muhimligi ta'kidlangan. Shu munosabat bilan ona tili darslarida og'zaki nutqni rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyatlar — o'yinlar, suhbatlar, muhokamalar, prezentatsiyalar — zamonaviy pedagogik yondashuvlar orqali qo'llanilmoqda.

Og'zaki nutqni rivojlantirishning nazariy asoslarini o'rganish, uning ta'lim tizimidagi o'рни va ahamiyatini tushunish uchun bir necha muhim tushunchalarni aniqlash zarur. Nutq, nafaqat axborot almashish vositasi, balki fikrlashni shakllantiruvchi va ijtimoiy munosabatlarni o'rnatishga yordam beruvchi vosita sifatida ham qaraladi.Lev Vygotskyning ijtimoiy konstruktivizm

nazariyasiga ko'ra, nutq — insonning rivojlanishida hal qiluvchi omildir. U fikrlash va tilning o'zaro bog'liqligini ta'kidlaydi. Vygotsky tomonidan ilgari surilgan “yaqindagi rivojlanish zonasining” konsepsiyasi, o'quvchilarning nutq malakalarini shakllantirishda o'qituvchining qo'llab-quvvatlashi va maslahatlari qanday muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Shuningdek, o'quvchilar o'z nutqini o'rganish jarayonida, ayniqsa, murakkab fikrlarni ifodalashda o'qituvchidan yordamsiz muvaffaqiyatga erisha olmaydilar. Shuningdek, “Vygotsky”ga asoslanib, “ZPD (Zone of Proximal Development)” tushunchasi, o'quvchining o'zi bajara olmaydigan vazifalarni o'qituvchining yordamida bajarishi mumkinligini ko'rsatadi. O'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishda, aynan bu “yaqin rivojlanish zonasi” nuqtai nazariyasi yordamida samarali usullarni tanlash mumkin. Bundan tashqari, “Jean Piaget”ning kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko'ra, til va nutqning rivojlanishi insonning tafakkurining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq. Piagetga ko'ra, og'zaki nutqning shakllanishi, o'quvchining aqliy qobiliyatlarining rivojlanish jarayoniga ham bog'liq. Bu, o'z navbatida, o'qituvchilar uchun darsni tashkil etishda ayniqsa muhimdir, chunki nutqning rivojlanishi bilvosita o'quvchining kognitiv ko'nikmalarini ham yaxshilaydi. “Noam Chomsky”ning “tilni o'rganish nazariyasi” ham nutqni rivojlantirishda asosiy tushunchalarni beradi. Chomskyga ko'ra, tilning rivojlanishida tabiiy til o'rganish jarayonida “biologik” jihat mavjud bo'lib, bu esa tilni o'rganishda har bir o'quvchining tabiiy qobiliyatiga asoslanadi. Ona tili o'qitish jarayonida bu nazariyaga tayangan holda, o'quvchilar o'z imkoniyatlariga qarab og'zaki nutqni shakllantirishda yordam olishlari mumkin. O'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishda turli metodik yondashuvlar va o'qitish usullari qo'llaniladi. Ushbu usullar o'quvchilarning muloqot ko'nikmalarini shakllantirishda samarali bo'lib, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi interaktiv munosabatlarni kuchaytiradi. Ona tili darslarida og'zaki nutqni rivojlantirishning eng samarali usullaridan biri bu — suhbat va muzokara qilishdir. Suhbatda o'quvchilar mavzuni muhokama qilib, fikr almashish orqali

o'z nutqlarini yaxshilashadi. "Muloqot jarayonida nutqning ikki asosiy shakli — og'zaki va yozma nutq — alohida o'rganiladi. Shunda o'quvchilar fikrlarini ravon va mantiqan to'g'ri ifodalashga o'rganadilar" Suhbatlar va muzokaralar o'quvchilarga o'z nuqtai nazarlarini, fikrlarini boshqa o'quvchilar bilan o'rtoqlashish va ularni aniq ifodalash imkonini yaratadi. Hikoya qilish — o'quvchilarni o'z fikrlarini izchil va aniq ravishda ifodalashga o'rgatishning samarali usuli hisoblanadi. Ushbu usulda o'quvchilarga biror voqea yoki matnni hikoya qilish, uni qayta bayon qilish vazifasi beriladi. Bu orqali ular o'z nutqlarini to'g'ri tuzish va aniq ifodalashga o'rganadilar. "Hikoya qilish va so'zlab berish bolalarning til va tafakkurini rivojlantirishda juda muhim o'quv faoliyatidir" Bu usul, shuningdek, o'quvchilarning tinglab tushunish qobiliyatini ham rivojlantiradi, chunki ular boshqa o'quvchilarning hikoyalarini tinglab, ularni tahlil qilishadi. O'yin usullari og'zaki nutqni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Ta'limiy o'yinlar o'quvchilarning til malakalarini oshirish bilan birga, ularni suhbatda ishtirok etishga va o'z fikrlarini ifodalashga undaydi. Masalan: Sport o'yini — bolalarni sog'lom bo'lishiga qaratilgan harakatli o'yin turi hisoblansa, yana biri bu Musiqa o'yini hisoblanadi — unda bolalar musiqaga bo'lgan qiziqishlarini yanada shakllantirishadi. Musiqa bilan birga turli milliy urf — odatlarimizga bo'lgan e'tibor ham kunsayin yangicha ta'assurot uyg'otadi. "Interfaol o'yinlar va rolli o'yinlar og'zaki nutqni rivojlantirishning eng yaxshi usullaridan biridir, chunki ular o'quvchilarga tabiiy nutq faoliyatini tashkil etishga yordam beradi". Bu o'yinlar orqali o'quvchilar o'z fikrlarini erkin va ishonch bilan ifodalay olishadi. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari og'zaki nutqni rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. O'quvchilar video materiallar, audiokitoblar, interaktiv o'yinlar orqali o'z nutq ko'nikmalarini amaliy tarzda mustahkamlashlari mumkin. "Multimedia vositalari yordamida o'quvchilar o'z nutqlarini rivojlantirish bilan birga, zamonaviy texnologiyalar orqali ko'nikmalarini yanada oshiradilar" Texnologiyalar yordamida darslar yanada interaktiv va qiziqarli bo'ladi, bu esa o'quvchilarni og'zaki nutqni yaxshilashga

undaydi. O'qituvchi og'zaki nutqni rivojlantirishda asosiy shaxsdir. Uning vazifasi o'quvchilarga to'g'ri va samarali muloqot qilish imkoniyatini yaratish, nutqni erkin ifodalashga yo'l ochishdan iborat. "O'qituvchining asosiy maqsadi — o'quvchilarga so'zlashuv muhitini yaratib berishdir"

Xulosa: Ona tili darslarida o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirish – ularning tafakkuri, muloqot madaniyati va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda muhim omildir. Dars jarayonida turli interaktiv metodlar, suhbatlar, munozara ro'lli o'yinlar, ijodiy topshiriqlar va hayotiy vazifalarga asoslangan mashg'ulotlardan foydalanish o'quvchilarning faol ishtirokini ta'limlaydi. Bu esa ularni so'z boyligini kengaytirishga, fikrni izchil aniq va ifodali bayon etishga o'rgatadi. Xulosa qilib aytganda, og'zaki nutqni rivojlantirishga qaratilgan maqsadli va tizimli ishlar o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantiradi, ularni erkin, madaniyatli va ishonchli so'zlovchi shaxs sifatida tarbiyalaydi. Ona tili darslarida shu jihatdan nafaqat bilim berish, balki shaxs kamolotini ta'minlashning muhim bosqichi bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G'ulomova A, Qodirova M. –Toshkent: O'qituvchisi, 2006.
2. Yo'ldosheva M, Shamsiyevna N. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. – Toshkent DTPU nashriyot, 2010.
3. Qosimova K, Raxmatullaeva tili o'qitish metodikasi. – Toshkent "Ilm ziyo", 2012.
4. Mamatova M. Nutq mdaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya", 2015.
5. Tursunova U, Raxmonova N. PU, 2018.
6. Karimova N. Boshlang'ich ta'lim, 2020.
7. Egamova // Ta'lim va innovatsiya, 2021.
8. Jumaboyeva D. "Dialogik va monologik nutqni rivojlantirish yo'llari" // Tili va adabiyot ta'limi,